

**IQTISODIY TIZIMLARNING MAMLAKAT HAYOTIDAGI O'RNI
VA AHAMIYATI**

Sherboyev K.

mustaqil tadqiqotchi

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada muallif tomonidan iqtisodiy tizimlarning mamlakat hayotidagi o'rni va ahamiyati atroflicha o'rganilib, uning o'zgarishi natijasida mamlakat hayoti va iqtisodiy qudrati yuksalashi baholanadi.*

***Kalit so'zlar:** iqtisodiyot, uy xo'jaliklari, xo'jalik yurituvchi subyektlar, iqtisodiy tizimlar.*

Mamlakatning iqtisodiy tizimlarini mustahkamlash, uning imkoniyatlarini oshirish, xorijiy bozorlarda tovarlar va xizmatlar eksportini yuksaltirish jarayonida turli xil xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi aloqa va munosabatlar muhim ahamiyat kasb etib boradi.

Iqtisodiy tizim – iqtisodiy mahsulotni ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash va iste'mol jarayonida paydo bo'ladigan asosiy iqtisodiy munosabatlarning shakl va mazmunini belgilab beradigan, mamlakatda tarixan paydo bo'lgan yoki joriy etilgan, amal qiladigan tamoyillar, qoidalar, qonun yo'li bilan mustahkamlangan normalar majmui. Iqtisodiy tizim doirasida iqtisodiyot sub'yektlari, ishlab chiqarish omillari o'zaro munosabatga kirishadilar va bu munosabatlar ma'lum qonun-qoidalarga binoan boshqariladi. Iqtisodiy tizim faoliyati mulk, pul va pul tizimi, davlat va nodavlat tashkilotlari, korxonalar, soliq, daromad, reja, foyda kabi bir kator vo-sitalar yordamida tashkil qilinadi.

Iqtisodiy tizim masalasiga qarashlarda turlicha yondashuvlar mavjud. Jahon iqtisodiy adabiyotlarida xo'jalik-iqtisodiy tizimlarni ishlab chiqarish vositalariga egalik shakli va iqtisodiy faoliyat muvofiklashtirish va boshqarish usuliga ko'ra tasniflash ko'proq tarqalgan. XXI asr boshlaridagi qarashlarda iqtisodiy tizimni baholashda moddiy-ashyoviy va ijtimoiy-iqtisodiy mezonlar birgalikda qo'llaniladi, Iqtisodiy tizimning eng muhim bir qator belgilari ta'riflanadi. Ularga

jamiyatdagi iqtisodiy resurslar tavsifi; texnika va texnologiya darajasi; ishlab chiqarish xarakteri; yaratilgan mahsulot va xizmatlar tarkibi; iqtisodiy munosabatlar tabiati; iqtisodiyotni boshqarish usuli; iqtisodiy siyosat mazmuni kiradi.

Turli qarashlarda insoniyat jamiyati tarixida 3,5 va hatto 7 ta iqtisodiy tizim bo'lganligi qayd etiladi. Ortodoksal, ya'ni marksistik nazariya iqtisodiy tizimni tavsiflashda ijtimoiy-sinfiy jihatdan yonda-shadi. Mulkchilik shakli, ekspluatatsiyaning borligi yoki yo'qligi, sinflarning iqtisodiyotdagi mavqei bosh mezon qilib olinadi. Ularga tayangan holda iqtisodiy tizim ishlab chiqarish usuli deb ataladi. Marksizmga ko'ra, ibtidoiy jamoa, quldorlik, feodalizm, kapitalizm va kommunizm kabi iqtisodiy tizimlar bor, ularning biri-ikkinchisiga o'rin bo'shatib beradi, ular ketma-ket o'rin almashadi, eng mukammal va so'nggi iqtisodiy tizim kommunizm deb ataladi. Marksizmga muqobil ta'limotlarda iqtisodiy tizimga texnologik va ishlab chiqarishning xarakteri, ishlab chiqarishning industriyalashuvi jihatidan qaralgan va baho berilgan. Taraqqiyot bosqichlari nazariyasiga ko'ra, ham 5 ta iqtisodiy tizim yoki bosqich mavjud: an'anaviy jamiyat bosqichi; parvoz uchun shartsharoit hozirlash davri; parvoz davri; yetuklik sari harakat davri; ommaviy va yuksak iste'mol davri. Bu bosqichlar ham o'zaro ketma-ketlikda o'rin almashadi. Ba'zi bir qarashlarda agrar, industrial va informatsion iqtisodiyot davrlari qayd etiladi. Ko'pchilik tadqiqotchilar an'anaviy, bozor va ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiy tizimlari borligini asoslaydilar.

An'anaviy iqtisodiy tizim belgilari: qo'l mehnati va tabiat kuchlaridan oddiy usulda foydalanish, g'oyat kam unumli texnologiyaning mavjudligi ishlab chiqarishning agrar xarakteri, iqtisodiyotning asosiy tayanchi ekstensiv yuritiladigan qishloq xo'jaligi; sanoatning hunarmandchilik va xonaki sanoat shaklida mavjudligi; iqtisodiy biqiklik, ya'ni xujalik avtarkizmi; iqtisodiyot biqiq bo'lganidan mahsulotlar, asosan, o'z is-te'moli uchun yaratiladi, ularni ehti-yojdan ortib qolgan qismigina ayirboshlanadi.

Xo'jaliklar natural iste'molchi bo'lganidan kamdan-kam hollarda bozor bilan aloqa o'rnatadilar, o'zini-o'zi ta'minlagani sababli ular uchun pulning

ahamiyati bo'lmaydi; o'zaro iqtisodiy aloqalar xo'jalikning ichida yoki mahalliy kichik hudud doirasida an'anaviy qoidalarga, urf-odatlarga ko'ra, amalga oshadi; iqtisodiy faoliyat jamoa va yakka xususiy mulkka asoslanadi; aholi turmush darajasi past bo'ladi.

Iqtisodiyot — bu ishlab chiqarish, taqsimlash va savdo, shuningdek, tovarlar va xizmatlarni iste'mol qilish sohasini o'rganish sohasi. Umuman olganda, u tanqis resurslarni ishlab chiqarish, ishlatish va boshqarish bilan bog'liq amaliyotlar, nutqlar va moddiy ifodalarni ta'kidlaydigan ijtimoiy soha sifatida belgilanadi. Muayyan iqtisodiyot - bu asosiy omillar sifatida uning madaniyati, qadriyatlari, ta'limi, texnologik evolyutsiyasi, tarixi, ijtimoiy tuzilishi, siyosiy tuzilishi, huquqiy tizimlari va tabiiy resurslarini o'z ichiga olgan jarayonlar to'plamidir. Bu omillar ma'no-mazmunni beradi va iqtisodiyot sharoit va parametrlarni belgilaydi. Boshqacha qilib aytganda, iqtisodiy soha - bu o'zaro bog'liq bo'lgan inson amaliyotlari va operatsiyalarining ijtimoiy sohasi bo'lib, u bir necha sohalar bilan chambarchas bog'liq.

Iqtisodiy agentlar jismoniy shaxslar, korxonalar, tashkilotlar yoki hukumatlar bo'lishi mumkin. Iqtisodiy bitimlar ikki guruh yoki ikki qarama-qarshi tomonlar muomala qilingan tovar yoki xizmatning odatda ma'lum bir valyutada ifodalangan qiymati yoki biror ma'lum narxda kelishishganda yuzaga keladi. Biroq, pul muomalalari iqtisodiy sohaning faqat kichik qismini tashkil qiladi.

Iqtisodiy faoliyat tabiiy resurslar, mehnat va kapitaldan foydalanadigan ishlab chiqarish tomonidan rag'batlantiriladi. Vaqt o'tishi bilan u texnologiya, innovatsiyalar (yangi mahsulotlar, xizmatlar, jarayonlar, bozorlarni kengaytirish, bozorlarni diversifikatsiya qilish, bozorlar, daromad funksiyalari darajasini oshiradi), masalan, intellektual mulkni ishlab chiqaradigan va ishlab chiqarish munosabatlaridagi o'zgarishlardir. (bunda eng ko'zga ko'rinarlisi, bolalar mehnati dunyoning ba'zi joylarida ta'limga universal kirish imkoniyati bilan almashtirilganini misol qilib aytsak bo'ladi).

Bozor iqtisodiyoti tizimi belgilari: yuksak zamonaviy texnologiyaning mavjudligi; ishlab chiqarishning industrial harakterda bo'lishi, iqtisodiy taraqqiyotda axborotning urni va ahamiyatining yuqoriligi; ishlab chiqarishda servis – xizmat ko'rsatish sohasi rolining ortib borishi; iqtisodiy usishning intensiv usuli ustuvorligi; iqtisodiyotning ochiq bo'lishi, uning bozor aloqalariga tayanishi; xil-maxil mulkchilik bo'lgani holda xususiy mulkning yetakchi urinda bulishi; iqtisodiyotning ijtimoiy yo'nalishga egaligi; aholi turmush darajasining yuqoriligi; iqtisodiyotga siyosatning kuchli ta'sir ko'rsatishi; iqtisodiyotning globallashuvi.

Ma'muriy-buyruqbozlik tizimi belgilari:

- mashinalar tizimiga asoslangan texnologiyaning bo'lishi, lekin uning past darajasi, ishlab chiqarishning industrial-agrar harakteri;
- iqtisodiyotning yopiq bo'lishi;
- davlat mulkining hukmronligi, jamoa mulkining bu mulk qo'shimchasiga aylanishi, xususiy mulkning taqiklanishi;
- iqtisodiyotning bir markazdan turib rejalashtirilishi, reja topshirikdarining majburiyligi;
- resurslar va mahsulotlarning yagona reja asosida taqsimlanishi;
- iqtisodiy stimullar zaif bo'lgani holda siyosiy-ma'naviy stimullarga ustuvorlik berilishi;
- iqtisodiyotning taqchilli bulishi, aholi turmush darajasining iqtisodiy salohiyatga nisbatan past bulishi, uning g'oyat sekin o'sishi.

Evolyusion tarixiy rivojlanish natijasida an'anaviy iqtisodiy tizim bozor tizimiga aylanadi, uni revolyusiyey yul bilan yo'qotish natijasida zurlik bilan ma'muriy-buyrukbozlik tizimi urna-tiladi, u uzini oklamaganidan qaytadan bozor tizimiga utish yuz beradi. Shunday o'tish jarayonida transformatsiyalashayotgan, ya'ni utish xrlatidagi iqtisodiy tizim yuzaga keladi. Bu tizimning asosiy belgisi rejali ma'muriy-buyrukbozlik tizimining bozor tizimiga aylanib borishidir. Bu jarayonda bozor isaohotlari muhim urinda turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Мирзаев К.Ж., Пардаев М.Қ. Хизматлар соҳаси иқтисодиёти: Ўқув қўлланма. Т.: «IQTISOD-MOLIYA». 2014. 384 б.
2. Голубицкая Е.А. Кухаренко Е.Г. Основы маркетинга и телекоммуникациях. – М.: Радио и связь, 2005. – 320 с.
3. Гончаренко Л.П. Инновационный менеджмент. 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Юрат, 2014, - 640 с.